

Oliy Majlisi Senatining o'n to'qqizinchi yalpi majlisi videokonferentsaloqa shaklida o'tkazildi



Majlis videokonferentsaloqa shaklida o'tkazildi. Unda Surxondaryo viloyatidan saylangan senatorlar va boshqa mas'ullar viloyat hokimi, Oliy Majlis Senati a'zosi To'ra Bobolov boshchiligidagi viloyat hokimligi studiyasidan ishtirok etdi.

Yalpi majlisda bir qator masalalar ko'rib chiqildi.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining birinchi yarim yillik yakunlari bo'yicha ijrosi to'g'risidagi, Qashqadaryo viloyati hokiminining hududlarni rivojlantirish haqidagi hisobotlari eshitildi.

Bundan tashqari, Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi raisining faoliyati to'g'risidagi axboroti muhokama qilindi.

Shuningdek, ta'lif muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashdagi dolzARB muammolar, oqova suv tozalash inshootlarida vujudga kelayotgan kamchiliklarning atrof-muhit hamda aholi salomatligiga ta'siri yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan parlament so'rovlarini natijalari ko'rib chiqildi.

Shuning bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n to'qqizinchi yalpi majlisi birinchi ish kuni yakunlandi.